



Cultivation of Potato Varieties Suitable for the Soil and Climate Conditions of the Khorazm Oasis

Kalantarov Sanat Kadamboyevich
Scientific-Research Institute of Vegetables, Pulses and Potatoes,
Director of Khorezm Experimental Station

Abstract

This article contains information about potato varieties grown in Khorezm region, care, fertilizing methods and irrigation periods.

Keywords: Recommendation on salt-resistant potato varieties.

XORAZM VOHASI TUPROQ IQLIM SHAROITIGA MOS KARTOSHKKA NAVLARINI ETISHTIRISH

Kalantarov Sanat Kadamboyevich
Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti,
Xorazm tajriba stansiyasi direktori.

Annatsiya:

Mazkur maqolada: Xorazm viloyatida yetishtiriladigan kartoshka navlari, parvarishlash, o'g'itlash usullari va sug'orish davrlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zi: Kartoshkaning sho'rga chidamli navlari haqida tavsiya.

Аннотация:

В данной статье собрана информация о сортах картофеля, выращиваемых в Хорезмской области, уходе, способах внесения удобрений и сроках полива.

Ключевое слово: Рекомендации по солеустойчивым сортам картофеля.

Kirish:

Yurtimizda ertangi kartoshka asosan fevral oyining oxiri mart oyining boshlarida ekiladi. Kechki kartoshka esa, may oyining oxirlari iyun oyining boshlarida ekiladi. Kartoshkani ekishdan avval yer ekishga tayyorlanadi. Katta maydonlarga ekilganda yerni haydashdan oldin mahalliy o'g'it (chirigan go'ng) amofost, ammiak selitra, superfosfat kabilarni sepiladi. Yer haydalib tayyorlangandan so'ng, urug'ni ekish mumkin bo'ladi. Bunda yerdagi namlik darajasi yetarli darajada bo'lishi kerak.

Xorazm viloyatida 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 129,7 ming tonna kartoshka yetishtirilgan bo'lib, hududlar kesimida jami hajmga nisbatan Urganch tumani eng yuqori - 18,7 % ulushga ega bo'lgan. Tumanda 2023- yilda 24,2 ming tonna mahsulot yetishtirilgan. Viloyat bo'yicha kartoshka yetishtirishda, shuningdek, Shovot (11,8 %), Xonqa (11,6 %) hamda Yangiariq (10,3 %) tumanlari yuqori ulushga ega bo'lgan.

Ekish uchun tavsiya etiladigan navlar: kartoshkaning O'zbekiston Respublikasi Davlat reestriga 63 ta navi kiritilgan. Ertapishar navlardan Latona, Fresko, Red Skarlet, o'rtagi-ertagi Kondor, Marfona, Romano, Kuroda, Sante, Diyora, o'rtapishar To'yimli, Umid, Ko'k saroy, Serhosil, Aladin, Arinda, Arnova, o'rtagi-kechki Aqrob, Mondial, Diamant, Pikasso va boshqalar shular jumlasidandir.

Urug' tanlash. Kartoshka hosilini oshirish, sifatini yaxshilash va erta yetilishini ta'minlash uchun uni undirilgan tuganaklaridan ekish kerak. Undirilgan tuganaklarni bahorgi muddatlarda ekish undirilmagan tuganaklarni ekishga qaraganda hosilni 12-15% oshirib, 10-15 kun erta pishishiga imkon beradi. Mahalliy sharoitda tayyorlangan urug'lar undirish xonalariga ekishdan 30-35 kun oldin, chetdan keltirilgan urug'liklar 20-25 kun ilgari qo'yiladi. Undirish xonasida yorug'lik va 18-22oS daraja issiq harorat yaratilishi lozim. Urug'liklar mayda yirikligiga qarab (40-60,60-80,80-100 g) saralab undirish xonaning pollariga, so'kchaklarga (stellaj) 2-3 qatlamdan oshirmay yoki 12-20-25 kg. li yashiklarga qo'yish lozim. Ularni yashil nishlari ekish davrigacha qo'lda qo'yib ketmon bilan yopib ekiladigan bo'lsa 3-4 sm. gacha o'stirib ekilsa bo'ladi. Og'irligi 100 g. dan katta tuganaklarni bahorda ekish uchun ikki-uch bo'lakka bo'linadi.

Yer tayyorlash. 1 sotixga 250-300 kg (10 sotixga 2,5-3 t) toza, chirigan go'ng solinadi. Tuproq belkurakda 18-20 sm chuqurlikda yumshatiladi yoki ketmon bilan chopiladi. Katta kesaklar maydalanadi va yer tekislanadi.

Ekish muddati va sxemasi. Bahorgi muddatda janubiy viloyatlarda 15 fevral-1 mart, markaziy mintaqada joylashgan viloyatlarda 25 fevral-10 mart, shimoliy mintaqalarda 10-20 mart. Yozgi muddatda janubiy viloyatlarda tezpishar navlar – 10-20 iyul; o'rtapishar navlar – 5-20 iyul; kechpishar navlar 20-30 iyun; markaziy mintaqada joylashgan viloyatlarda tezpishar navlar – 10-20 iyul, o'rtapishar navlar – 10-30 iyun, kechpishar navlar 10-20 iyunda ekiladi. Shimoliy hududlarda tezpishar navlar – 20-30 iyun, o'rtapishar navlar – 15-25 iyun, kechpishar navlar – 5-10 iyunda ekiladi. Kartoshka tuganaklari (urug'ligi) 5-8 sm chuqurlikka ekiladi va har 1 sotix yerga 50-70 gramm og'irlikda bo'lgan, 30-35 kg kartoshka urug'ligi sarflanadi.

Kartoshka oldindan tayyorlab qo'yilgan maydonga qo'lda ketmon bilan 70×30 yoki 90×25 sm sxemada ekiladi.

Parvarishlash. Maydonlar urug'lik to'liq unib chiqquncha ob-havo va yer sharoitiga ko'ra 1-2 marta sug'oriladi. Sug'orish natijasida begona o'tlar ham jadal o'sib chiqa boshlaydi. Ularni yo'qotish maqsadida sug'orishdan 4-6 kun o'tgach, qator oralari va egatlarning ustki qismiga qo'lda ketmon bilan yalpisiga ishlov berish lozim. Ular yerdan to'liq unib chiqqandan keyin 20-25 kun o'tgach, o'simliklarga birinchi kompleks ishlov beriladi. Qator oralari 15-16 sm chuqurlikda, o'simlikdan 10-12 sm himoya masofasi qoldirilib yumshatiladi. Keyin esa o'simlik oralari yengil chopiq qilinib, begona o'tlardan tozalanishi lozim. Shundan so'ng maydondagi o'simliklarni birinchi marta azotli o'g'it (50%) bilan oziqlantirib, keyin qondirib sug'orish tavsiya etiladi. Ikkinchi kompleks ishlov birinchi ishlovdan 25-28 kun o'tgach yoki o'simliklar yoppasiga g'unchalaydigan davrda amalga oshiriladi. Kartoshka bahorda ekilganida o'suv davri havoning salqin va tuproqning sernam paytiga, hosil to'plash davri esa yozning ayni qiziy boshlagan vaqtiga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham ertagi kartoshka hosil to'plash (tuganaklash) paytida har 5-6 kunda 1



sotix yerga 4-4,5 m³ hisobidan sug'orishni talab qiladi. Kechki kartoshka o'suv davrida 8-10 kun oralatib bir me'yorda sug'oriladi. Hosilni yig'ib-terib olishga 2-3 hafta qolganda suv berish to'xtatiladi.

O'g'itlash. Kartoshka asosiy oziqa elementlariga o'ta talabchan. Kartoshka yetishtirilganda 1 sotix yerga sof holda 2,2 kg azot, 1,7 kg fosfor, 1,1 kg kaliy berish kerak. Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish. Kartoshka hosilini oshirishda ekiladigan tuganaklarni yirikligi, shakli va boshqa belgilari bilan tanlab olish muhim tadbir hisoblanadi. Kartoshka o'simligida kolorado qo'ng'izi paydo bo'la boshlaganda qo'ng'izni qo'lda terib chiqish tavsiya etiladi. Qo'ng'izlar ko'payib tuxum qo'ya boshlagandan keyin kimyoviy preparatlar qo'llaniladi. Bunda 10 sotix ekin maydoniga Karate 5% k. e. (10 ml), Konfidor 20% k. e. (5 ml); Mospilan 20% n. k. (20-25 ml); Sumi-alfa 5% k. e. (50 ml) preparatlari 60-70 litr suvda yaxshilab aralashtirilib purkaladi.

Hosilni yig'ishtirish. Kartoshka tuganaklari 25-30 sm chuqurlikda shakllanadi, shuning uchun ketmon yordamida chuqurroq kovlab olinadi. Bu davrda tuproq nam bo'lishi lozim. Shunda kartoshkalarni beshikast yig'ishtirishga erishiladi.

XULOSA

Xorazm viloyatida yetishtiriladigan kartoshka navlari, parvarishlash, o'g'itlash usullari va sug'orish davrlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Kartoshkaning sho'rga chidamli navlari haqida fermer va dehqonlarga tavsiyalar berish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. O'zPITI. Toshkent. 2007. – B. 147.
2. Sabzavot etishtirish. X.Ch.Bo'riyev. Toshkent. 2023. – B. 117.
3. Ramatov, B. Z., Matyaqubov, M. M., & Bekchanov, X. Y. (2023). Xorazm viloyati sharoitida qovoq urug'ini unuvchanligini o'rganish. *Innovative developments and research in education*, 2(19), 7-9.
4. Шакиров, А., Садуллаев, С., Матякубов, М. (2023). Хоразм вилояти шароитида эртанги муддатда етиштириш учун қовоқ нав намуналарини танлаш. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 107(10), 178-181.
5. Раматов, Б. З., & Матякубов, М. М. (2022). Агротехника выращивания нового перспективного сорта тыквы в хорезмской области. *Scientific Impulse*, 1(4), 1243-1245.
6. Shokirov, A. J., Raximov, A., Matyakubov, M. M. (2022). Xorazm viloyati o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida qovoq navlari urug'ining unib chiqish va chinbarg hosil qilish muddatlari. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 1(10), 178.
7. Xalimova, M., Sadullaev, S. M., Borasulov, A., Matyokubov, M. M., Boltayev, M. A. (2021). Xorazm qovunlarining istiqbolli nav namunalari. Табиий фанлар ривожланишининг замонавий тамойиллари, 1(1), 185.
8. Borasulov, A., Sadullaev, S. M., Xalimova, M. O., Boltayev, M. A., Matyokubov, M. M. (2021). Qovunning saxovat navini urug'unuvchanligi. Табиий фанлар ривожланишининг замонавий тамойиллари, 1(1), 182.



Volume 1, Issue 9, December 2023

ISSN (E): 2938-3781

9. Matyaqubov, M., Raximov, A., Rajabov, A. (2021). Mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirilgan tropik ekin –indigoferaning biologik xususiyatlari. Biologiya ekologiya va qishloq xo‘jaligi muammolarining ilmiy hamda innovatsion yechimlari, 1(1), 173.
10. Iskandarov, Z., Abdieva, G., Matyakubov, M. (2020). Фойдали моделларга патент ва талабномаларнинг тизимли ва рақамли кўрсаткичлари. Фойдали моделлар Расмий ахборотнома, 9(2), 82.
11. Iskandarov, Z., Abdieva, G., Matyakubov, M. (2019). Experimental investigation of the thermophysical characteristics of the melatic meat. Electronic journal of actual problems of modern science, 2(8), 1.
12. <http://www.sgau.ru/files/pages/14691/14327973036.pdf>,
13. <https://www.Agro-olam.uz>